



UDK: 82-131=512.121

*Guljahan BAZARBAYEVA,*  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*  
*E-mail: guljahanbazarbaeva@gmail.com,*

*PhD, D.Xo'javey taqrizi asosida*

## THE HEROIC IMAGE OF WOMEN IN THE EPIC “QYRQ QYZ” AND ITS PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Annotation

This article analyzes the images of female heroes in the famous Karakalpak heroic epic «Qirq Qiz» (Forty Girls) from philosophical, artistic, and historical-cultural perspectives. The central heroine Gulayim and the forty brave girls united around her are examined as a vivid example of the feminine heroism phenomenon in epic thinking. The article investigates, based on scientific sources, the comparative relationship of female warrior images with ancient Amazon traditions, traces of matriarchy, and the social status of women in Saka and Massagetae culture.

**Key words:** «Qirq Qiz» epic, Gulayim, female heroism image, Karakalpak folklore, Amazons, epic tradition, matriarchy, gender equality, philosophical interpretation, Saka-Massagetae culture.

## ГЕРОИЧЕСКИЙ ОБРАЗ ЖЕНЩИН В ЭПОСЕ «КЫРЫК КЫЗ» И ЕГО ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются образы женщин-героинь в знаменитом каракалпакском героическом эпосе «Сорок девушек» с философской, художественной и историко-культурной точек зрения. Образ центральной героини Гулайым и сорока храбрых девушек, объединившихся вокруг неё, рассматривается как яркий пример феномена женственности в эпическом мышлении. В статье на основе научных источников исследуются вопросы сравнительной связи образа женщин-воительниц с традицией древних амазонок, следов матриархата, социального положения женщины в культуре саков и массагетов.

**Ключевые слова:** Эпос «Сорок девушек», Гулайым, образ женской героини, каракалпакский фольклор, амазонки, эпическая традиция, матриархат, гендерное равенство, философская интерпретация, сако-массагетская культура.

## “QIRQ QIZ” DOSTONIDA AYOL-QIZLARING QAHRAMONLIK OBRAZI VA UNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqining mashhur qahramonlik eposi «Qirq qiz» dostonidagi ayol qahramonlar obrazi falsafiy, badiiy va tarixiy-madaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Dostonning markaziy qahramoni Guloyim va uning atrofida birlashgan qirq nafar botir qiz obrazi epik tafakkurdagi ayollik fenomenining yorqin namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ayol jangchilar obrazining qadimiy amazonkalar an'anasi bilan qiyosiy bog'liqligi, matriarxat davri izlari, sak va massaget qabilalari madaniyatidagi ayolning ijtimoiy mavqei kabi masalalar ilmiy manbalar asosida tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** «Qirq qiz» dostoni, Guloyim, ayol qahramonlik obrazi, qoraqalpoq folklori, amazonkalar, epik an'ana, matriarxat, gender tengligi, falsafiy talqin, sak-massaget madaniyati.

**Kirish.** Qoraqalpoq folklorida alohida o'rin tutuvchi «Qirq qiz» dostonining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda qahramonlik timsoli asosan ayollar obrazlari orqali gavdalantiriladi. Dostonda markaziy qahramon sifatida tasvirlangan Guloyim hamda uning atrofida birlashgan qirq nafar botir qiz obrazi xalq epik tafakkurida ayollarning jasorati, vatanparvarligi va ijtimoiy faolligini ifodalovchi ramziy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan «Qirq qiz» dostoni nafaqat qahramonlik eposi, balki ayol obrazining ijtimoiy va ma'naviy mohiyatini ochib beruvchi muhim folklorlik manbalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Xalqaro xotin-qizlar kuni”ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday ta'kidlagan: «Inson qadr-qimmatini ulug'lash, avvalo, azizu mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi». [1] Mazkur fikr jamiyat taraqqiyotida ayollarning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini tasdiqlab, folklor merosidagi ayol qahramonligi obrazlarini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dostonning matniga nisbatan qo'llanilgan tarixiy-qiyosiy metod uning amazonkalar an'anasi, sak-massaget madaniyati va turkiy xalqlarning epik

merosi bilan aloqalarini aniqlashga xizmat qilgan. Tadqiqot manbalari sifatida «Qirq qiz» dostonining ilmiy nashrlari, qoraqalpoq folklorini o'rganishga bag'ishlangan monografiya va maqolalar, qadimgi tarixchilar — Strabon, Ktesiy, Plutarx asarlari hamda zamonaviy folklorshunoslik va gender tadqiqotlari ishlatilgan. Farid Alakbarlining «Amazons: Legends in History — Fearless Women Warriors in Life and Lore» [3] nomli tadqiqoti ayol jangchilar fenomenini qiyosiy o'rganishda muhim metodologik manba vazifasini o'tagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** «Qirq qiz» dostonidagi ayol qahramonlik obrazini to'liq anglash uchun bu fenomenning tarixiy-madaniy ildizlarini o'rganish zarur. Tarixchi olim Farid Alakbarlining «Amazons: Legends in History — Fearless Women Warriors in Life and Lore» [3] nomli tadqiqotida ta'kidlashicha, amazonkalar haqidagi rivoyatlar dastlab qadimgi yunon tarixchilari asarlarida uchraydi. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlar esa bu rivoyatlarning muayyan tarixiy asosga ega ekanligini ko'rsatmoqda: ayrim qabrlarda ayollarga tegishli jangovar qurollarning topilishi qadimgi jamiyatlarda ayol jangchilar mavjud bo'lganligi haqidagi ilmiy taxminlarni kuchaytiradi.

Qadimgi tarixchi Strabon amazonkalar haqida shunday ma'lumotlar beradi: «Amazonkalar erkaklardan alohida holda yashab, o'z vaqtlarini yer haydash va ekin ekish, daraxt ekish, chorvalarini yaylovga olib chiqish bilan o'tkazadilar. Ularning ichida eng jasurlari ot ustida ov qilish bilan shug'ullanadi va harbiy san'at mashqlarini bajaradi». Yunon tarixchisi Ktesiy esa sak ayollari jasur va urushda erlariga yordam berganligini alohida ta'kidlaydi.[3]

Qadimgi fors manbalarida skiflar, saklar va sarmatlar «turonliklar» deb nomlanib, Firdavsiyning «Shohnom» asarida doimiy yashovchi forslar va ko'chmanchi turonliklar o'rtasidagi ziddiyatlar tasvirlangan.[3] Turon ayollari urushlarda qatnashganligi, ko'pincha ularni shohlar emas, balki qirolichalardan boshqarganligi ta'kidlangan bo'lib, massaget malikasi Tumaris buning yorqin namunasi sifatida keltiriladi.

«Qirq qiz» dostoni bilan amazonkalar haqidagi rivoyatlar o'rtasidagi qiyosiy tahlil bir qancha muhim umumiy jihatlarni ko'rsatadi. Birinchidan, har ikkala an'anada ham ayollar jangovar mahoratga ega bo'lgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ikkinchidan, ayol qahramonlar jamiyat himoyasida faol ishtirok etuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, ayol jangchilar obrazi xalqning ozodlik, mustaqillik va adolat haqidagi g'oyalarini ifodalashda muhim ramziy timsol vazifasini bajaradi. Farqli jihatlari ham mavjud bo'lib, unga ko'ra: amazonkalar haqidagi rivoyatlar ko'proq mustaqil ayol jangchilar jamoasi haqida hikoya qilsa, «Qirq qiz» dostoni aniq tarixiy-madaniy muhitga bog'langan epik asar sifatida shakllangan. Unda ayol qahramonlar xalq ozodligi uchun kurashuvchi milliy qahramonlar sifatida tasvirlanadi. Bu farq dostonning o'ziga xos milliy koloritini va qoraqalpoq xalqining tarixiy haqiqatiga nisbatan munosabatini aks ettiradi.

Folklorshunos olim Q.Ayimbetov o'z asarida «Qirq qiz» nomli qadimiy qo'rg'on qal'aning Qoraqalpog'iston Respublikasi Elliqal'a tumani hududida [7] saqlanayotganligini va dostonida uchraydigan qoraqalpoq urug'larining nomlarini tahlil qilib, dostonning geografik va etnik asoslarini aniqlashga harakat qilgan. Bu tadqiqotlar dostonning tarixiy haqiqatga asoslanganligini, ayol qahramonlik obrazlarining hayoliy emas, balki tarixiy voqelikning badiiy aksi ekanligini ko'rsatadi.

Dunyo xalqlari ma'naviy merosida qahramonlik qilgan ayollar obrazlari keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin: miloddan avvalgi VI asrda yashab to'rt qavatli osma bog' bunyod ettirgan Vavilon podshosi Semiramida[5], miloddan avvalgi IX asrda saroy soldirib el-yurtiga rahbarlik qilgan Ossuriya podshosi Shamiram-Shammuramat[6], qirg'iz xalqining «Manas»idagi Saykal, «Kitobi dedam Qo'rqut»dagi Bonu Chechak, qadim zamonda yashagan urug' boshliqlari Oruxxon bilan Oqcho'lpon – bularning barchasi «Qirq qiz» dostonidagi Guloyim bilan mazmun va funktsiya jihatdan yaqinlik kasb etadi.[9]

«Qirq qiz» dostoni O.Kajurov tomonidan «matriarxat davrining uzoqdan eshitilgan hayqirig'i»[10] deb baholanganligi bejiz emas. Dostonidagi ayollarning yetakchi rol o'ynashi, harbiy va ijtimoiy qarorlarni mustaqil qabul qilishi – bularning barchasi arxaiik jamiyatlardagi ayolning yuqori ijtimoiy mavqeyini aks ettiradi.

«Qirq qiz» dostonidagi ayol qahramonlik obrazlari zamonaviy jamiyat uchun ham muhim ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Dostonning g'oyaviy-falsafiy mazmuni bugungi gender tengligi tamoyillari bilan hamohangdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 7-mart kuni Ko'ksaroy qarorgohida o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rini yuksak baholab shunday ta'kidlagan: «Uy-ro'zg'or ishlari bilan birga bilim olib, jamiyat hayotida faol qatnashayotgan xotin-qizlarimiz zamonamizning haqiqiy

qahramonlaridir».[2] Bu fikr «Qirq qiz» dostonidagi qahramonlar obrazi bilan g'oyaviy jihatdan hamohangdir: o'tmishdagi qirq qiz vatanini himoya qilgan bo'lsa, zamonavimizdagi ayollar bilim va ijtimoiy faollik orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda. Dostonning badiiy kuchi ham shundaki, u yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik ruhida tarbiyalashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** «Qirq qiz» dostonida Guloyim obrazi qoraqalpoq xalqining milliy qahramonlik idealini o'zida mujassam etgan markaziy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy jihatdan ko'riladigan bo'lsa, Guloyim obrazi uch muhim jihat orqali tahlil qilinishi mumkin: birinchidan, u shaxsiy qahramon sifatida o'zining individual iroda va jasurligini namoyish etadi; ikkinchidan, u kollektiv ozodlik harakatining boshqaruvchi kuchi sifatida ijtimoiy mas'uliyatni zimmasiga oladi; uchinchidan, u Ona Yurt himoyachisi sifatida transindividual ma'noga ega bo'ladi.

Dostonning mazmuniga ko'ra Guloyim yosh va go'zal qiz bo'lishi bilan birga harbiy mahorat, davlat boshqaruvi va strategik fikrlash qobiliyatiga ham ega. U Mevali orolida bog' yaratib, shahar qurdirgan — bu esa uning nafaqat jangchi, balki davlat arbobi sifatidagi qirralarini ham ko'rsatadi. Mevali orolida shahar barpo etish motivi Guloyimning yaratuvchi, o'zlashtiruvchi, ma'rifiy kuch sifatidagi falsafiy mazmunini ochib beradi.

Guloyim boshchiligidagi qirq nafar qizning jamoa bo'lib harakat qilishi dostonning eng muhim g'oyaviy-falsafiy qatlamlaridan biridir. Bu kollektiv qahramonlik motivi J.Campbellning «qahramonning safari»[4] kontsepsiyasida guruh harakatning universal ma'nosiga mos keladi: qahramonlar safar paytida sinovdan o'tib, g'alaba qozonib, o'z xalqiga yordam olib qaytadilar. «Qirq qiz» dostonida bu safari Vatan himoyasi uchun olib boriladigan jangda ifodalanadi.

Dostonning badiiy tizimida ayol qahramonlar bir tomondan go'zallik va insoniy fazilatlar (mehr-shafqat, sadoqat, donishmandlik), ikkinchi tomondan esa qo'rqmaslik, kuch va harbiy mahorat kabi ziddiyatli, lekin bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlar bilan tasvirlanadi. Bu poetik model ayol qahramonlikning kompleks falsafiy mazmunini ochib beradi: ayol — nafaqat jangovar kuch, balki insoniy qadriyatlarining ham tashuvchisidir.

**Xulos va takliflar.** Mazkur tadqiqot qoraqalpoq xalqining «Qirq qiz» dostonidagi ayol qahramonlik obrazini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi.

Birinchidan, «Qirq qiz» dostoni qoraqalpoq xalqining epik merosida ayol qahramonlik fenomenining eng yorqin namunasi bo'lib, Guloyim va uning atrofidagi qirq nafar botir qiz obrazlari milliy qahramonlik idealini o'zida mujassam etgan. Dostonning falsafiy mazmuni shaxsiy jasorat, tinchlik va milliy g'oyalarni o'zaro uyg'unlashtiradi.

Ikkinchidan, dostonning tarixiy ildizlari sak-massaget madaniyatiga, amazonkalar an'anasiga va Markaziy Osiyo ko'chmanchi xalqlarining matriarxal-patriarxal aralash ijtimoiy tuzumiga borib taqaladi. S.P.Tolstov, O.Kajurov, N.Dovqoraev [8] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy xulosalari bu bog'liqliklarni ishonchli tarzda asoslaydi.

Uchinchidan, «Qirq qiz» dostoni bilan amazonkalar haqidagi tarixiy rivoyatlar o'rtasida muhim parallelliklar mavjud bo'lib, bu parallelliklar Farid Alakbarlarning tadqiqotlari asosida qiyosiy tahlil qilingan.

To'rtinchidan, dostonning zamonaviy ahamiyati nafaqat madaniy meros nuqtai nazaridan, balki gender tengligi va ayollarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosati bilan ham uyg'unligida namoyon bo'ladi. Prezidentimizning ayollar haqidagi fikrlari bilan dostonning

g'oyaviy mazmuni o'rtasidagi hamohanglik bu merosning zamonaviy jamiyat uchun dolzarbligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot qoraqalpoq folkloridagi ayol qahramonlik fenomenini chuqurroq anglashga, shuningdek milliy epik merosni zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan tadqiq

etishga muhim hissa qo'shadi. Kelajakda dostonning turli variantlarini qiyosiy o'rganish, uning boshqa turkiy xalqlar eposlari bilan munosabatlarini keng miqyosda tahlil qilish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Toshkent, 7 mart 2024. – president.uz. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7077> (murojaat qilingan: 01.03.2026).
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Toshkent, 7 mart 2025. – JCH Kun. URL: <https://jch.kun.uz/news/2025/03/07> (murojaat qilingan: 01.03.2026).
3. Alakbarli F. Amazons: Legends in History — Fearless Women Warriors in Life and Lore. – Baku: Elm va Təhsil, 2020. – 214 s.
4. Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. – Princeton: Princeton University Press, 1949. – 416 p.
5. Можейко И. 7 из 37 чудес. – Алматы: Онер, 1988.
6. Женщины в мифах и легендах. Энциклопедический словарь – Ташкент: Главная редакция энциклопедии, 1992.
7. Ayimbetov Q. Xarakteristika karakalpakского героического эпоса. Qo'lyozma O'zR Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining kutubxonasida saqlanadi.
8. Dovqaroyev N. Очерки по истории каракалпакской литературы. Рукопись докторской диссертации. Хранится в библиотеке института Востоковедения АН СССР в Москве; Послесловие к эпосу «Сорок девушек». – Москва, 1951.
9. Maqsetov Q. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarining poetikasi - Toshkent: Fan, 1965.
10. Kajurov O. Каракалпакский фольклор и его изучение. Рукописный фонд КК ФАН УзР.